

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RSIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 15-dekabrda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, № 9, 343-modda; 2016-yil, № 12, 383-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 5, 267-modda, № 9, 592-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

1) **6-modda** quyidagi mazmundagi to'qqizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligini va uning hududiy bo'linmalarini — voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan hamda davlatning ijtimoiy yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalar aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan xabardor qiladi";

2) 8-moddaning **birinchi qismi** quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari";

3) quyidagi mazmundagi 17¹-modda bilan to'ldirilsin:

"17¹-modda. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

voyaga yetmaganlarning o'z iqtidori va iste'dodini to'laqonli namoyon etishiga, shuningdek ularning o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishiga monelik qiladigan omillarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'radi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida ishtirok etadi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan reabilitatsiya qilishga va ularning moslashuviga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin".

2-modda. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 5, 129-modda; 2015-yil, № 8, 310-modda; 2016-yil, № 12, 383-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 9, 589, 591-moddalar, № 10, 674-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

1) 9-moddaning **birinchi qismi** quyidagi mazmundagi o'n beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari";

2) quyidagi mazmundagi 19¹-modda bilan to'ldirilsin:

"19¹-modda. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining va uning hududiy bo'linmalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga, shu jumladan huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashda hamda bartaraf etishda ko'maklashadi;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni (yoshlarni) ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylilikni mustahkamlashga, shuningdek korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatni shakllantirishga qaratilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyatda ishtirok etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin".

3-modda. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 9, 271-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda; 2018-yil, № 7, 431-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi mazmundagi 7¹-modda bilan to'ldirilsin:

"7¹-modda. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini tahlil qiladi, shuningdek uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishga, shuningdek ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xorijda o'qiydigan yoshlar bilan ishlarni tizimli asosda tashkil etadi;

yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarining hamkorligini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan